


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 746 tani tashkil etadi, shundan 21 299 tasi yoki 79,6 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan 95,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 93,5 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 746	21 438	21 299
2024	28 011	22 918	22 781
2023	30 253	25 044	24 912
2022	44 611	39 152	39 002
2021	40 361	34 932	34 803

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Andijon shahrida – 26,9 foiz, Andijon – 8,3 foiz, Asaka – 7,8 foiz, Shahrixon – 6,8 foiz va Baliqchi – 5,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi salmoqli ulushi Andijon tumanida – 84,6 foiz va 84,3 foiz, Andijon shahrida – 84,1 foiz va 83,3 foiz, Xonobod shahrida – 80,8 foiz va 80,2 foiz, Xo'jaobod – 80,1 foiz va 79,3 foiz, Ulug'nor – 79,9 foiz va 79,4 foiz hamda Marxamat – 79,8 va 79,0 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Oltinko'l tumani	1 426	1 137	1 130
Andijon tumani	2 222	1 879	1 873
Baliqchi tumani	1 541	1 217	1 211
Bo'ston tumani	920	734	730
Buloqbo'shi tumani	806	598	593
Jalolquduq tumani	1 136	837	834
Izboskan tumani	1 391	1 080	1 079
Ulug'nor tumani	825	659	655
Qo'rg'on tepa tumani	1 359	1 020	1 015
Asaka tumani	2 089	1 640	1 631
Marxamat tumani	1 241	990	981
Shahrixon tumani	1 828	1 442	1 437
Paxtaobod tumani	1 102	817	814
Xo'jaobod tumani	1 173	939	930
Andijon sh.	7 202	6 057	5 997
Xonobod sh.	485	392	389

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-dekabr holatiga 29,8 foizni (37,2 foiz va 37,4 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 17,2% (21,4% va 21,3%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,3% (7,7% va 7,7%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 237	1 200	1 192
Sanoat	4 607	4 585	4 530
Qurilish	1 672	1 652	1 640
Savdo	7 983	7 980	7 959
Tashish va saqlash	744	739	729
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 297	1 295	1 293
Axborot va aloqa	439	431	430
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 188	939	938
Boshqa turlar	7 579	2 617	2 588

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, 21 438 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 18 624 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	18 624	86,9
Xususiy korxonalar	1 515	7,1
Oilaviy korxonalar	1 060	4,9
Aksiyadorlik jamiyati	35	0,2
Boshqalar	204	0,9

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, 2025-yilning 1-dekabr holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 404 ta korxonalardan 127 tasi qo'shma korxonalar va 277 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 80 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 57 tadan 91 taga, (o'sish 34 taga), qurilish sohasida 25 tadan 43 taga (o'sish 18 taga) va sanoat sohasida 163 tadan 180 taga (o'sish 17 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	404	127	277
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	8	8
Sanoat	180	75	105
Qurilish	43	7	36
Savdo	91	19	72
Tashish va saqlash	12	4	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	1	9
Axborot va aloqa	13	1	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	35	11	24

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 148 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,6 foizini tashkil etdi. Shuningdek, viloyatimiz iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (16,6%), Turkiya (14,1%), Qirg'iz Respublikasi (11,9%) va Janubiy Koreya (6,9%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	404	127	277
Xitoy	148	33	115
Rossiya	67	29	38
Turkiya	57	15	42
Qirg'iz Respublikasi	48	13	35
Janubiy Koreya	28	15	13
Singapur	9	1	8
BAA	7	3	4
Tojikiston	6	2	4
Hindiston	5	2	3
Belorusiya	5	2	3
AQSH	4	1	3
Qozog'iston	3	1	2
Ozarbayjon	2	-	2
Boshqalar	15	10	5

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul: Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi	Ijrochi: Z. Sidikov 74 228-29-70 (6060)	Maznil: 170100, Andijon sh., Milliy tiklanish ko'chasi, 36 A
--	--	---